

Ro`zimurodova Sitora Maqsiddin qizi

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi magistranti

sitoraruzimurodova050@gmail.com

+998944301140

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Savodxonlikni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar hamda dars jarayonida qo'llaniladigan amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarni to'g'ri, ravon va mazmunli yozishga o'rgatishda lingvistik, psixologik va metodik omillarning o'zaro uyg'unligi izohlanadi. Tadqiqot jarayonida ilg'or tajribalar va amaliy tavsiyalar keltirilib, ularning savodxonlikni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab beriladi. Maqola umumta'lim maktablari o'qituvchilari, metodistlar va til ta'limi sohasidagi tadqiqotchilar uchun foydali metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ona tilini puxta o'zlashtirish va savodxonlik darajasini oshirish masalasi ta'lim tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Savodxonlik – bu nafaqat imlo qoidalariga amal qilib yozish, balki fikrni aniq, mantiqiy, tushunarli va ta'sirchan ifodalay olish malakasidir. Ona tili darslari orqali o'quvchilar o'z fikrini to'g'ri ifodalash, matn yaratish, tahlil qilish va nutq madaniyatini shakllantirish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida o'quvchilarning savodxonligini oshirishga qaratilgan bir qator davlat dasturlari va metodik ishlanmalar joriy etildi. Bu jarayonda innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari hamda amaliy mashg'ulotlar ona tili ta'limining sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Ammo shunga qaramay, o'quvchilar orasida imloviy xatolar, nutqdagi lo'ndalik va mantiqiylikning yetishmasligi, matn yaratishda izchillik muammolari kuzatilmoqda. Savodxonlik darajasini oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, dars jarayonida metodlardan to'g'ri foydalanishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashga undalishi va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu

maqolada ona tili darslarida savodxonlikni oshirishning samarali yo'llari, ilg'or tajribalar, amaliy mashqlar, didaktik o'yinlar va texnologik yondashuvlar keng yoritiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, savodxon avlod – bu ma'naviy yetuk, fikrini erkin bayon qila oladigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega shaxsdir. Ona tilida savodli bo'lish esa o'quvchi uchun barcha fanlarni o'zlashtirishda ham mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ona tili darslarida savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar va metodik ishlanmalar keng miqyosda olib borilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat tilini rivojlantrish dasturi" hamda Xalq ta'limi vazirligining ona tili o'qitish bo'yicha me'yoriy hujjatlarida savodxonlikni oshirishga doir aniq metodik tavsiyalar keltirilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda ham savodxonlikni oshirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur ta'lim tizimida ona tilida savodxonlikni oshirish uchun texnologiyalarga asoslangan topshiriqlar, ijodiy yozuv mashg'ulotlari va kitobxonlik dasturlari samarali qo'llanilmoqda. Ushbu tajribalar o'zbek til ta'limida ham qo'llanishi mumkin bo'lgan ilg'or yondashuvlar sifatida ahamiyatlidir.

Tilshunos olimlarimiz Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharopfat Yo'dosheva, Sharofjon Sariyevlarning "Ona tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida o'zbek tili tovushlar tizimi savod o'rgatish metodlari asosida qiyosiy- tanqidiy tahlil etiladi. Ushbu qo'llanmada o'quvchilarga savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodini amaliy jihatdan yoritib beradi. Quyida ushbu metod haqida to`xtalar ekan quydagicha fikr bildiradi: "Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

□ Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsnı shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limi va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy m ashqlar orqali aqliy o'sishini ta'm inlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

□ Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi:

- a) alifbegacha tayyorlov davri;
- b) alifbo davri.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

□ Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalaming jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;


d) o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi [1;29].

Shuningdek, yana bir tatqiqotchimiz Mashrapova Muqaddasxon Turg'unovnaning "Ona tili darslarining savodxonlikni oshirishdagi ahamiyati va samarali o'qitish usullari (metodik tavsiya)" maqolasida ham savodxonlikni oshirish yo`lidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo`lib, o'quvchilarga so'z o`yinlari, audio manbalar, rolli o`yinlar orqali savod egallah ko'nikmalarini rivojlantirish haqida muhim tavsiyalar berilgan.

Muhokama va natijalar. Ona tili darslarida savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqidagi aniqlik, mantiqiylik va imloviy savod darajasi o'qituvchining metodik yondashuviga bevosita bog'liqdir. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda qiziqishni oshirib, ularni mustaqil fikrashga undaydi.

Savodxonlikni oshirish borasida tajribalar natijasida ishlab chiqilgan ayrim interfaol metodlarni dars jarayonida qo'llashni tavsiya qilib o'tmoqchimam. Quyida keltirilgan ushbu zamovaviy metod va texnologiyalar ta'lim oluvchilarni savodli qilish hamda bilim sifatini oshirishga qaratilgandir.

"Kashf et" metodi- mazkur metod orqali o'quvchilarni izlanishga, o'ylashga, harflarni amalda to`g`ri qo'llashga hamda tilimizning naqadar boy til ekanligini bilishga undaydi. Ushbu metodning qo'llanilishi quyidagicha: O'qituvchi doirachalar ichiga harflarni yozib chiqadi hamda pastki qismiga krasword shaklida katakchalarni joylashtiradi.O'quvchilar berilgan harflardan chetga chiqmagan holda turli so`zlarni hosil qiladi. Ushbu metodning sxemasini namuna asosida



Yuqoridagi harflar yordamida katakchalarda “soxta”, “xato”, “ota”, “xos”, “ost”, “sot (sotmoq)” so‘zlarini hosil qilishadi. O‘qituvchi katakchalar sonini ko‘paytirish ham mumkin. Mazkur metod o‘quvchilarda savodxonlikni oshirish balki fanga bo‘lga qiziqishini orttirib, darsni qiziqarli va faol tarzda o‘tishini ta’minlaydi.

Ko‘pchikka ma’lumki, o‘quvchilar **X** va **H** harflarini yozish paytida xatolikka yo‘l qo‘yishadi. Quyida keltirilgan metodimiz mazkur muammoga yechim bo‘lishi uchun foydali bo‘ladi. **X mi? H mi?** metodi- ushbu metod o‘quvchilarni X va H harflarini farqlashga hamda to‘g’ri talaffuz qilishga, yozma nutqda to‘g’ri qo‘llashga o‘rgatadi. Mazkur metodni qo‘llashda o‘qituvchi bir nechta X yoki H ishtirok etgan so‘zlani yozadi hamda ushbu so‘zlarda H va X harflarini tushurib o‘rniga nuqtacha qo‘yib qo‘yadi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga kerkali H yoki X harfini qo‘yib chiqadi. So‘ngra mashq bajarilgan o‘qituvchi yordamida birgalikda tahlil qilib xato kamchiliklari to‘g’rilab chiqishadi. Ushbu metod dars davomida doimiy qo‘llanib borilsa, o‘quvchilar savodini oshirishga hamda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka olib keladi. Quyida ushbu metodga namuna keltirib o‘tamiz:

nuqtalar o'rniغا kerakli harfini qo'ying

X yoki H

Timso...h gav...ar

Til...at mu...lis

Bema...al dara.....t

Go'sht...o'r imti...on

...abar chorra...a

Nigo.... i...los

Niko.... Te...nika

...umpar la....za

Meros...o'r par....ez

Mar...abo ma...sus

Xulosa. Ona tili darslarida savodxonlik darajasini oshirish – o'quvchilarning intellektual rivojlanishi, mantiqiy fikrlashi va nutq madaniyatini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, savodxonlikni samarali rivojlantirish uchun interfaol metodlar, amaliy yozuv mashqlari, matn tahlili va zamonaviy axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirib qo'llash eng yuqori natija beradi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, ularning so'z boyligini kengaytirish va yozma nutqdagi aniqlikni ta'minlash uchun tizimli yondashuv zarur. Xalqaro tajribadan olingan ilg'or uslublarni milliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish esa savodxonlik darajasini yanada oshiradi.

Shunday qilib, ona tili darslarida savodxonlikni oshirish o'qituvchining metodik mahorati, darsdagi interfaollik, o'quvchilarning doimiy amaliy mashg'ulotlarda ishtiroki hamda texnologik vositalardan foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Natijada, savodli, mustaqil fikrlaydigan, til boyligidan unumli foydalana oladigan shaxsni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR RO'YXATI:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharopfat Yo'dosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2009.
2. Mashrapova Muqaddasxon Turg`unovna. Ona tili darslarining savodxonlikni oshirishdagi ahamiyati va samarali o`qitish usullari (metodik tavsiya). Pedagoglar 65-son 2-to`plam yanvar 2025.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005.
4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010
5. . Hamroyev A.R., Po'latova Y.A. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2021.
6. Jo'rayev R.X., Raximov B.X., Xolmatov Sh.F.Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2005.
7. Rahmatullayev Sh. Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati.- Toshkent: O'qituvchi, 1995